

Virusli hepatit va uning turlari

Jo'rayeva Karomatxon Najmuddin qizi

Rishton Abu Ali ibn Sino nomdagi jamoat salomatligi texnikumi o'qituvchisi

Turg'unboyeva Shahnoza Mahammadjon qizi

Rishton Abu Ali ibn Sino nomdagi jamoat salomatligi texnikumi o'qituvchisi

Sobirova Umida G'ulomjon qizi

Rishton Abu Ali ibn Sino nomdagi jamoat salomatligi texnikumi o'qituvchisi

Rishton Abu Ali ibn Sino nomdagi jamoat salomatligi texnikumi

Abstract: Hepatitis means inflammation of the liver. Your liver in many ways keeps you healthy. It flushes toxins from your body and converts nutrients in food into energy. Viral hepatitis can cause serious health problems, including liver damage, liver failure, liver cancer, and premature death. There are different types of viral hepatitis.

Key words: Viral hepatitis A, Viral hepatitis B, Viral hepatitis C, Viral hepatitis D, etiology, epidemiology, clinic, hematogenous, fecal-oral, jaundice period, incubation period, symptom

Virusli hepatit - o'tkir yuqumli kasallik kasallik bo'lib, asosan jigarning zararlanishi, hamda umum a'zoning zaharlanishi belgilari bilan ifodalanadi. Virusli hepatit deganda bir-biriga o'xshash olti xil hepatit tushuniladi, bular A, B, S, D, Ye G viruslari qo'zg'atadigan kasallikkardir. Ular yuqishiga qarab og'iz orqali (A, Ye) va parenteral yo'l bilan yuqadigan (B, S, D, G) xillarga ajratiladi.

Virusli hepatit A — o'tkir siklik kechuvchi, qo'zg'atuvchisi fekal-oral mexanizmda yuqadigan,jigarning yalliglanish va nekrobiotik o'zgarishlaribilan xarakterlanadigan,xamda intoksikatsiya,gepatomegaliya sindromi, kliniko-laborator o'zgarishlar va sariqlik bilan kechuvchi infektion kasallik xisoblanadi. Virus A – o'zida RNK saklovchi, juda mayda sferik bo'lakchadan iborat bo'lib, o'zining ko'p fizikaviy va kimeviy xossalarga ko'ra enteroviruslar guruxiga yaqin turadi. Bu virus bevosita to'kmaniemirishxususiyatigaega. Virus – 20 S da muzlatilganda 2 yil, – 60 S da kizdirilganda 4 soatsaklanadi. 100 S da kaynatilganda 5 min. davomidao'z faoliyatini mutlako yo'qotadi. Ultrabinafshanurlari ta'sirda 1 minutda parchalanadi.

Kasallik epidemiologiyasi. Bemor odam va ayniqsa kasallikni engil bilinar-bilinmas belgilar bilan yoki klinik belgilarsiz o'tkazayotgan shaxslar kasallikning asosiy

yuqtirish manbai bo‘lib xizmat qiladi. Virus asosan bemorning najasi orqali ajraladi. Eng ko‘p ajralishi inkubatsion davrning oxiri va kasallikning boshlangich (sariklik paydo bulgunga kadar) davrida kuzatiladi. SHuning uchun xam bu davrda bemorlar atrofidagilar uchun o‘ta xavfli hisoblanadilar. Ko‘pchilik xollarda virusni naja orqali ajralishi sariqlik davrining birinchi xafatasida to‘xtaydi. Qonda esa virus yuqqandan keyin, ikki hafta keyin paydo bo‘ladi va sariqlik davrining to birinchi kunlarigacha mavjud bo‘ladi. Kasallik odamga asosan og‘iz orqali (virus bilan ifloslanganda: qo‘l, idish-tovoq, ovqat, suv va boshqalar) yuqadi. havo-nafas yuli orkali yuqish taxmin qilinadi.

Virusli gepatit A kechishida yashirin, boshlang‘ich, sarg‘ayish (yoki kasallikning avj olgan davri), kasallikni belgilarini orqaga qaytish va rekonvaletsent (kasallikdan tuzalishi) davrlari kuzatiladi.

Yashirin	davrining	davomiyligi	14-50	kunni	tashkil	qiladi
Sariklik			oldi			davri:

1. Dispeptik (ishtahasizlik, ko‘ngilaynishi, quşish, qorindaog‘riq, o‘ng qovurg‘a ostida og‘irlik xissi).

2. Astenovegetativ (injiqlik, o‘yinqaroqlik yo‘qolishi, uyqu bosishi).

3. Kataral (tanaharoratioshishi, burun bitishi, tomoq og‘rishi, yo‘tal, aksirish).

Barcha xolatlarda bemorlarning jigar o‘lchamlari kengaygan, AlAT va AsAT faollikkleri oshgan bo‘ladi. Sariqlik davrida kasallikning boshlanish davridagi belgilar asta so‘nadi. Avval bemor til osti va tanglay shilliqqavati, ko‘zning oqi, og‘iz-burun atrofi terisi sarg‘ayadi va sariqlik asta-sekin butun tana tersini hamda shilliqqavatlarni qoplaydi. Bemor darmonsiz, loxas bo‘ladi, ishtaxasi pasayadi yoki mutlako bo‘lmaydi, ba’zan ko‘ngil aynab xatto qayt qilishi mumkin. Ayrim bemorlar o‘ng qovurg‘asi ostida qandaydir og‘irlik va sal og‘riq sezadilar. Terining qichishi bemorlarning uchdan bir qismida uchraydi. Qichish odatda kechqurun va tunda zo‘rayadi, oqibatda uyqu buziladi. Bemor jigari kattalashgan, qattiklashib, bezilab turgani aniqlanadi. Jigarning qattiklashish darajasi turlichayuzasi silliq bo‘lib, ko‘proq chap bo‘lmasi kattalashadi.

Gepatit B — bu virusli kasallik bo‘lib, virus organizmga tushganda hayotiy zarur bo‘lgan ichki organlarga salbiy ta’sir ko‘rsata boshlaydi. Ushbu kasallik tufayli eng ko‘p shikast jigarga yetadi, uning shikastlanishi mikro-hujayrali darajada bo‘ladi. Kasallik alomatlarsiz kechishi yoki aniq belgilar bilan namoyon bo‘lishi mumkin. Surunkali bosqichiga o‘tganda, ushbu virusli infektsiya ko‘pincha jigar sirrozi va saratoni rivojlanishiga olib keladi.

Gepatit B bir odamdan boshqa odamga qon, urug‘ va qin suyuqligi orqali o’tishi mumkin. Gepatit B ning yuqish yo’llaridan ayimlari quyidagilarni o‘z ichiga oladi:

- Bola tug'ilishi vaqtida; gepatit B bilan yashovchi homilador ayol gepatit B ni chaqalog'iga o'tkazishi mumkin.
- gepatit B bilan yashaydigan odam bilan prezervativ yoki tish prokladkalari singari jismoniy to'siqsiz jinsiy aloqa qilish.
- Insulin, glyukoza monitorlari, giyohvand moddalarni iste'mol qilish, steroidlar, tatuirovka yoki akupunktur kabi tibbiyat yoki inyeksiya uskunalarini birgalikda yoki qayta ishlatish.
- Ustara, tish cho'tkasi yoki qon, urug' yoki qin suyuqligiga tegishi mumkin bo'lgan narsalar kabi shaxsiy qarov vositalaridan birgalikda foydalanish.

O'tkir gepatit B ning belgilari va simptomlari istima, toliquvchanlik, ishtahaning yo'qolishi, ko'ngil aynishi, qayt qilish, qorin og'rig'i, to'q rangdagi siydik, axlatning kulrang bo'lishi, bo'g'in og'rig'i yoki sariq kasalligi (teri yoki ko'zlarning sariq rangga kirishi) kabilarni o'z ichiga oladi. Bu simptomlar odatda bir necha haftadan keyin yo'qoladi. Gepatit B bilan og'rigan ko'pchilik kishilar bir necha o'n kun davomida hech qanday simptomga ega bo'lmaydilar va o'zlarining kasalliklaridan bexabar bo'lishlari, biroq baribir virusni tarqatishlari mumkin. Simptomlar paydo bo'lganida ular odatda jigar o'z ishini boshqa bajara olmaydigan darajadagi xavfli jigar kasalligining belgisi bo'ladi. Gepatit B bor yoki yo'qligini bilishning yagona yo'li test topshirishdir.

Gepatit C. Kasallikning boshqa nomlanishi «mehricon qotil» bo'lib, bu nom unga o'zining asl sababini boshqa ko'plab kasalliklar ko'rinishida yashirishi mumkinligi sababli berilgan. Gepatit C — antroponoz virusli kasallik.

Kasallikning ikki kechish turi farqlanadi: o'tkir va surunkali. O'tkir gepatit C ning rivojlanishi virus bilan zararlangandan keyin boshlanadi. Bu vaqtda ko'pchilik kasallanganlarda hech qanday belgilari kuzatilmaydi. Taxminan 50 — 80% bemorlarda kasallik keyinchalik surunkali shaklga o'tadi. Surunkali bosqich o'n yillar davomida shakllanadi va u ham hech qanday alomatlarsiz kechishi mumkin. Agar kasallik davolanmasa, bemor oxir-oqibat jigar kasalliklariga duchor bo'ladi va infektsiya tashuvchisiga aylanadi. Dunyoda 150 millionga yaqin odam gepatit C bilan surunkali infektsiyalangan va jigar sirrozi yoki saratoni xavfi ostida. Har yili 350 mingga yaqin bemor HVC bilan bog'liq jigar kasalliklari tufayli vafot etadi. Har yili 3-4 million kishi virus bilan infektsiyalananadi. Infektsiya manbai kasalligi faol yoki latent (virus tashuvchilari) bo'lgan bemorlar hisoblanadi. HCV infektsiya perenteral zararlanish mexanizmi bo'yicha yuqadi — infektsiyalangan qon va uning tarkibiy qismlari, shuningdek erkak urug'i va qin ajralmalari (3% atrofida).

Gepatit C jisniy aloqa orqali yuqishi ehtimoli gepatit B dagiga nisbatan kamroq va

deyarli minimal ko'rsatkichlarga teng. 20% hollarda kasallik qay tarzda yuqganligi aniqlanmaganligicha qoladi. Infektsiya manbai sifatida eng xavfli toifa surunkali gepatit C bilan kasallangan bemorlar sanaladi.

Virus hayvonlar yoki hasharotlardan yuqmaydi.

Gepatit C virusi asosan qonda va zararlangan kishining o'ziga xos boshqa tana suyuqliklarida oz miqdorda mavjud. Virus hozirda eng ko'p inyektsiya uchun ishlatilgan igna almashinuvi sabab yuqadi. 1990-yilga qadar virus odatda qon quyish orqali yuqgan. Hozirda qon quyish orqali yuqishi xavfi deyarli yo'q, chunki donorlik qoni avvalo tahlil qilinadi

Gepatit D. Asosan jigar yallig'lanishi bilan kechadigan D gepatiti hozirgi vaqtida turli yoshdagi kishilar o'rtasida uchraydi. Bu kasallik gepatit B ning zamirida rivojlanadi. Kuzatishlarga ko'ra, gepatit D virusi ko'pincha sterillanmagan tibbiy asbob-uskunalar orqali, masalan, qon quyganda, shuningdek tishlarni davolaganda, yetarlicha himoyalanmay jinsiy aloqa qilganda kishiga yuqib qoladi. Bundan tashqari, D gepatiti virusi nuqsonli bo'lib, uning ko'payishida B gepatiti viruslari muhim rol o'ynaydi. Demak, o'tkir yo surunkali B gepatiti bilan og'riganlarda D gepatit yuzaga kelishi tezlashadi.

Kasallik viruslari tashqi muhitga juda chidamli bo'ladi, biroq zararlangan joyni kislota va ishqorlar bilan artganda nobud bo'ladi.

D gepatiti virusi qonga tushgach, jigarning eng ichkari hujayralarigacha yetib boradi. Ayanchli tomoni shundaki, D gepatitini yuqtirgan bemorning jigari ilgari B gepatiti virusi bilan albatta, og'rigan bo'ladi. O'z-o'zidan ayonki, delta gepatit virusi B gepatiti virusining genetik mahsulotlariga qo'shilib, (ochiqrog'i jigarda o'rnashib) hujayralarda virus zarrachalarining ko'payishini faollashtiradi. Bu esa jigar hujayralarining kuchli zararlanishi va yallig'lanishiga olib keladi. Ta'kidlash joizki, D gepatiti alomatlari (simptomlari) xuddi virusli gepatit B niki singari kechadi. Masalan, bemor quvvatsiz bo'ladi, salga charchaydi, terlaydi, kayfiyat salga buziladi, ish qobiliyati pasayib ketadi. Ayrim hollarda behollik shunchalar kuchayadiki, hatto bemorlar ish jarayonida ham dam olishga majbur bo'lishadi. Aksariyat bemorlar esa tezlik bilan oza boshlaydilar. Ayniqsa, kasallik xuruiji davrida bemorlarning qariyb hammasida dispeptik sindrom (ya'ni doimiy ko'ngil aynishi, qayt qilish, ishtaha yo'qolishi) rivojlanadi. Ba'zi hollarda esa xuruj vaqtida bemorlar jigar sohasidagi og'riqdan shikoyat qiladi. Bunday og'riq ko'pincha jismoniy harakat paytida yoki parhez buzilganda paydo bo'ladi. Bemor o'ng biqinida xuddi "bir narsa osilib turgandek" bezovtalanadi. Bundan tashqari ozgina ovqat iste'mol qilinsa ham oshqozon sohasida og'irlilik seziladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yhati:

1. Bemorlarni uyda va shifoxonada parvarish qilish. F.G` Nazirov. Toshkent-2003.
2. Hamshiralik ishi asoslari. Q.Inomov. Toshkent-2007.
3. Xirurgiya. A.J.Hamrayev. Toshkent-2002.
4. Xirurgiya va reanimatsiya asoslari. A.J. Hamrayev. Toshkent-2002.
5. Bolalar kasalliklari. A.N.Buraya. Toshkent-1988.
6. E.I. Musaboyev, A.Q. Bayjanov Yuqumli kasalliklar Toshkent-2009
7. Dr. J. R a s e n a c k. Viral Heðatitis. Germany, 1996
8. S o r i n s o n S.N. Virusnie geðatiti, S—Peterburg, Izdatelstvo «Öeza», 1998.